Mamatkulova Shoirja Jalolovna	
RAQAMLI TURIZM INFRATUZILMASINI BAHOLASHDA INTEGRATSION INDIKATORLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH	750
Raximov Abror Zafarovich	
THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF DEVELOPING PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN	754
Rajapova Gulnoza Maxmudovna	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА	759
Ахмедова Газиза Азим кизи	
THE IMPORTANCE OF DIGITALIZATION METHODS AND SUSTAINABILITY IN PROVIDING PRODUCTS AND SERVICES TO CUSTOMERS	763
Umarova Nargiza Mirakabarovna	
NOMINAL ALMASHUV KURSI QADRSIZLANISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA ILMIY-TAHLILYI YONDASHUV	768
Toyirov Yunus Alamovich, Nazarov Qilich Xolmuradovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	773
Жураева Нодирахон Фузулий кизи	
MILLIY INNOVATSION TIZIMDA FAN TA'LIM VA ISHLAB CHIQRARISH O'ZARO UYG'UNLIGI	779
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI VA ULARNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	782
To'raboyeva Kimiyoxon O'rozbekovna, Asadov Baxshullo Xasanboy o'g'li	
DAVLAT QARZI VA UNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	786
Alimov Muhammad Yunus Muhammad ali o'g'li	
RAQAMLI BOSHQARUV VA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR ORQALI MINTAQAVIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	791
Dilmurodov Zuhridin Do'stmurod o'g'li	
MAHALLA INSTITUTIDA KICHIK BIZNES VA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	795
Dawletmuratov Adilbay Mirzabaevich	
MINTAQI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TASHQI SAVDO OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH ASOSLARI	801
Masharipova Manzura Alimbayevna	
ME'ROS OBYEKTLARIDA TURISTIK SIG'IMNI MIQDORIY BAHOLASH: NODIR DEVONBEGI MADRASASI MISOLIDA	806
Ikromova Shaxinabonu Ilg'or qizi, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	813
Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligini takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Elektron hisobvara-fakturalar va onlayn nazorat-kassa texnikalarining joriy etilishi, raqamli markirovkalash tizimi, barqarorlik reytingi mexanizmi, kameral soliq tekshiruvi tartibi, QQS zanjiri uzilishining oldini olish masalalari xorijiy tajriba va mahalliy amaliyot ma'lumotlari asosida tahlil qilingan. Maqolada to'rtta asosiy ilmiy yangilik taklif etilgan bo'lib, ularning har biri soliq tizimining shaffofligini oshirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash maqsadiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: soliq ma'murchiligi, raqamli markirovkalash, barqarorlik reytingi, kameral tekshiruv, QQS zanjiri, soliq imtiyozlari, differensial yondashuv.

Abstract. This article examines the directions for improving tax administration in the Republic of Uzbekistan from a scientific and practical perspective. Based on foreign experience and national practice data, the study analyzes the implementation of electronic invoices and online cash register systems, the digital labeling system, the sustainability rating mechanism, the procedure of desk tax audits, and measures to prevent VAT chain disruptions. The article proposes four main scientific innovations, each aimed at increasing the transparency of the tax system and improving the business environment.

Key words: tax administration, digital labeling, sustainability rating, desk tax audit, VAT chain, tax incentives, differential approach.

Аннотация. В данной статье с научно-практической точки зрения исследованы направления совершенствования налогового администрирования в Республике Узбекистан. На основе зарубежного опыта и данных национальной практики проанализированы вопросы внедрения электронных счетов-фактур и онлайн-кассовой техники, системы цифровой маркировки, механизма рейтинга устойчивости, порядка камеральной налоговой проверки, а также предотвращения разрыва цепочки НДС. В статье предложены четыре основных научных нововведения, каждое из которых направлено на повышение прозрачности налоговой системы и улучшение предпринимательской среды.

Ключевые слова: налоговое администрирование, цифровая маркировка, рейтинг устойчивости, камеральная проверка, цепочка НДС, налоговые льготы, дифференцированный подход.

KIRISH

Soliq ma'murchiligi davlat moliyaviy tizimining muqarrar tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat budjet daromadlarini shakllantirish, balki iqtisodiyotda adolatli raqobat muhitini ta'minlash, investitsiya jozibadorligini oshirish va soyadagi iqtisodiyotni qisqartirish funksiyalarini bajaradi. O'zbekistonda 2017–2025-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar doirasida soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish ustuvor vazifalar qatoridan o'rin oldi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishi, soliq turlarini 13 tadan 9 taga qisqartirish, stavkalarni optimallashtirish, elektron hisobot tizimlarini joriy etish va soliq nazoratini raqamlashtirish — bularning barchasi soliq munosabatlarining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minladi. 2020–2025-yillar mobaynida davlat budjetiga soliq tushumlari 103,6 trillion so'mdan 247,8 trillion so'mga oshdi, ya'ni ikki yarim barobardan ziyod o'sdi.

Shunga qaramay, soliq ma'murchiligida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib qolmoqda: soliq imtiyozlarining barcha subyektlarga bir xil me'yorda berilishi, kameral tekshiruvlarda inson omilining yuqoriligi, raqamli markirovkalash uchun belgilangan haddan tashqari jarimalar va QQS zanjirining farmatsevtika sohasi bo'yicha uzilishi shular jumlasiga kiradi. Ushbu muammolar maqolaning tadqiqot mavzusini belgilab berdi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq ma'murchiligining nazariy asoslarini o'rganishda Gary Becker (1968)ning optimal jazo modeli alohida ahamiyat kasb etadi: unga ko'ra, jarima miqdori huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli va yetkazilgan zararining ko'lamiga to'g'ridan to'g'ri mutanosib bo'lishi lozim. Ushbu nazariya asosida soliq sanksiyalarining juda yuqori darajada belgilanishi ko'pincha tadbirkorlarni qonuniy faoliyatdan norasmiy sektorga o'tishga undashi kuzatiladi.

James Alm va Benno Torgler (2006)ning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, soliq to'lovchilarning ixtiyoriy ravishda soliqlarni to'lash darajasi (voluntary compliance) faqat jazo darajasiga emas, balki davlat institutlariga bo'lgan ishonch va adolat hissiyotiga ham bevosita bog'liq. Ushbu xulosalar O'zbekistondagi soliq islohotlarining ilmiy asoslanishida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

International Monetary Fund (2019) va Organisation for Economic Co-operation and Development (2021) tavsiyalariga ko'ra, zamonaviy soliq ma'murchiligida xavfga asoslangan nazorat (risk-based audit) tizimini qo'llash eng samarali yondashuv hisoblanadi: bu usul orqali soliq organlari cheklangan resurslari bilan maksimal nazorat qamroviga erishadi. Raqamli texnologiyalarning soliq tizimiga integratsiyasi (E-Filing, E-Invoicing, digital marking) hozirgi kunda European Union mamlakatlari, Singapore, South Korea va boshqa rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilmoqda.

Xususan, Brazil, Mexico va Chile kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda soliq imtiyozlarining jami soliq tushumlaridagi ulushi 15–30% atrofida bo'lsa, Indonesia va Vietnamda bu ko'rsatkich 10–20% ni tashkil etadi. O'zbekistonda esa 2022-yilda bu ulush 72% ga yetgani tizimli imtiyozlar siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq ma'murchiligida raqamlashtirishning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri elektron hisobvara-q-fakturalar (EHF) va onlayn nazorat-kassa texnikalarining (ONKT) joriy etilishidir. 2020-yil 1-yanvardan boshlab amaliyotga tatbiq etilgan ushbu tizimlar soliq hisob-kitoblarida shaffoflikni ta'minlash va inson omilini kamaytirishga xizmat qildi.

Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2021–2025-yillar davomida rasmiylashtirilgan elektron hisobvara-q-fakturalar soni 35,9 mln. donadan 54,41 mln. donaga oshgan, ya'ni 51,6% ga ko'paygan. Ushbu davr mobaynida tovar aylanmasi esa 1 297,9 trillion so'mdan 2 570,6 trillion so'mga yetgan, bu 98,1% ga o'sish demakdir. Mazkur ko'rsatkichlar raqamli soliq ma'murchiligining iqtisodiy faollikka ijobiy ta'sirini yaqqol namoyon etadi.

Onlayn nazorat-kassa texnikalaridan foydalanuvchilar soni ham sezilarli oshdi: 2021-yilda 134 498 ta subyekt bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 208 585 taga yetdi. Shu bilan birga, o'rnatilgan onlayn kassa texnikalari soni 201 000 tadan 298 404 taga ko'paydi, ular orqali amalga oshirilgan savdo hajmi esa 68,5 trillion so'mdan 323,7 trillion so'mga oshdi (1-jadval).

1-jadval. Elektron hisobvara-q-fakturalar (EHF) dinamikasi, 2021–2025-yillar

Yil	EHF soni (mln.dona)	O'sish, %	Tovar aylanmasi (trln. so'm)	O'sish, %
2021	35,9	—	1 297,9	—
2022	38,8	+8,1%	1 402,7	+8,1%
2023	41,5	+7,0%	1 681,2	+19,9%
2024	50,0	+20,5%	2 041,6	+21,4%
2025	54,41	+8,8%	2 570,6	+25,9%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2020–2025-yillar davomida soliq tushumlari barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. 2022-yilda soliq imtiyozlarining jami tushumlardagi ulushi 72% ga yetganligi iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan tashvish uyg'otadi. Bu ko'rsatkich xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslaganda ancha yuqori: Xitoyda 15–20%, Hindistonda 20–25%, Braziliyada esa 15–30% atrofida. 2024-yilga kelib imtiyoz ulushi 15% gacha tushgani islohotlarning samarasidan dalolat beradi.

QQS, foyda solig'i va aksiz solig'i bo'yicha tushumlar dinamikasini ko'radigan bo'lsak, 2020–2023-yillarda barqaror o'sish kuzatilgan. 2025-yil yakuni bilan foyda solig'i bo'yicha tushumlar 75,3 trillion so'mga yetgan bo'lsa, aksiz solig'i bo'yicha ham 20,0 trillion so'mlik tushum ta'minlandi. Bu ko'rsatkichlar soliq ma'murchiligida raqamlashtirish jarayonlari budjet bazasini kengaytirishga sezilarli hissa qo'shayotganini tasdiqlaydi (2-jadval).



2-jadval. Davlat budjeti soliq tushumlari va soliq imtiyozlari ulushi dinamikasi

Yil	Soliq tushumlari (trln. so'm)	O'sish (trln.so'm)	O'sish, %	Imtiyoz ulushi, %
2020	103,6	—	—	40%
2021	127,9	+24,3	123,4%	46%
2022	148,4	+20,5	116,0%	72%
2023	165,9	+17,5	111,8%	50%
2024	199,5	+33,6	120,3%	15%
2025	247,8	+48,3	124,2%	—

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari.

Amaldagi soliq qonunchiligiga asosan soliq nazoratining ikki shakli mavjud: soliq tekshiruvlari va soliq monitoringi. Soliq tekshiruvlari o'z navbatida kameral, sayyor va soliq auditi turlariga bo'linadi (3-jadval).

3-jadval. Soliq tekshiruvi turlarining asosiy farqlari (xorijiy tajriba asosida)

Mezon	Kameral tekshiruv	Sayyor tekshiruv	Soliq auditi
Joy	Soliq organida (masofadan)	To'lovchi hududida	To'lovchi hududida
Asos	Hisobot ma'lumotlari farqi	Qoidabuzarlik alomati	Yuqori risk yoki kameral yakuni
Davomiyligi	Uzluksiz jarayon	10 kun	30–90 kun
Inson omili	Minimal	Yuqori	O'rta

Manba: IMF (2019), OECD (2021) va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Kameral soliq tekshiruvlari samaradorligi tahlili shuni ko'rsatadiki, bir tekshiruvga to'g'ri keladigan qo'shimcha soliq summasi 2020-yildagi 0,034 mlrd. so'mdan 2025-yilda 0,813 mlrd. so'mga oshgan, ya'ni 24 barobar o'sgan. Bu holat tekshiruv soni kamaysa ham, sifati va aniqligining sezilarli darajada yaxshilanganidan dalolat beradi (4-jadval).

4-jadval. Kameral soliq tekshiruvi samaradorligi dinamikasi, 2020–2025-yillar

Yil	Tekshiruvlar soni	Qo'shimcha soliq (mlrd.so'm)	Bir tekshiruvga (mlrd. so'm)	O'sish, %
2020	50 918	1 725,0	0,034	—
2021	84 171	4 566,1	0,054	+164,7%
2022	38 963	8 784,0	0,225	+92,4%
2023	50 762	8 900,0	0,175	+1,3%
2024	31 938	15 407,3	0,483	+73,1%
2025	45 371	36 870,2	0,813	+139,3%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tekshiruvdan oldingi avtomatlashtirilgan tahlil tizimida qo'llaniladigan mezonlar soni ham yildan yilga o'sib bormoqda: 2020-yilda 79 ta mezon bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 506 taga yetdi. Avtomatlashtirilgan kameral tekshiruvlar orqali aniqlangan kamchiliklarning 87 foizi soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil bartaraf etilgan — bu raqamli nazorat tizimining profilaktik funksiyasi samarali ishlayotganini isbotlaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 737-son qarori bilan sigaretlar, alkohol mahsulotlari, dori vositalari, maishiy texnika, suv va salqin ichimliklar hamda mineral o'g'itlar bo'yicha majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi. Tizimda ishtirok etayotgan korxonalar soni 2022-yildagi 466 tadan 2024-yil yakuniga kelib 3 585 taga yetdi.

Biroq markirovkalash qoidalarini buzganlik uchun belgilangan jarima miqdori dastlab sof tushum miqdorining 100% darajasida belgilanganligi tadbirkorlik muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 2023-yilda 254 ta, 2024-yilda 1 083 ta tadbirkorlik subyekti jarimaga tortilgan bo'lib, umumiy jarima summasi taxminan 400 mlrd. so'mga yetgan (5-jadval).



5-jadval. Markirovkalash qoidalarini buzganlik uchun xorijiy davlatlardagi jarima me'yorlari

Davlat	Jarima miqdori (aylanmadan %)	Yondashuv
Fransiya	10% gacha	Bosqichma-bosqich
Italiya	4% gacha	Ogohlantirish + jarima
Ispaniya	4% gacha	Ogohlantirish + jarima
Yaponiya	3%	Risk asosida
Janubiy Koreya	2%	Risk asosida
O'zbekiston (2024 gacha)	100% (sof tushum)	To'g'ridan-to'g'ri
O'zbekiston (2024 dan)	2% (oxirgi chorak tushumi)	Takomillashtirilgan

Manba: WCO (2022), EC Directive 2019/1153 va muallif tahlili asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijiy davlatlarda markirovka qoidalarini buzganlik uchun belgilangan jarima me'yorlari O'zbekistondagiga qaraganda ancha past: Yaponiyada 3%, Janubiy Koreyada 2%, Italiya va Ispaniyada 4% gacha. Bundan tashqari, Yevropa mamlakatlarida moliyaviy jarima qo'llashdan avval ogohlantirish berish tartibi mavjud bo'lib, bu tadbirkorlarga xatolarni ixtiyoriy ravishda tuzatish imkonini beradi.

Prezidentning 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son qarori bilan joriy etilgan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi soliq ma'murchiligini takomillashtirish yo'lidagi muhim institutsional yangilik hisoblanadi. Reyting AAA dan D gacha bo'lgan 10 ta toifani o'z ichiga oladi (6-jadval).

6-jadval. Barqarorlik reytingi bo'yicha tadbirkorlik subyektlari taqsimoti, 2024–2025-yillar

Toifa	2024-yil boshi	2025-yil boshi	2025-yil oxiri	O'sish (+/-)
AAA	112	1 697	2 270	+2 158
AA	589	4 101	4 078	+3 489
A	954	4 946	5 580	+4 626
BBB	5 767	16 964	19 719	+13 952
BB	15 684	30 080	34 068	+18 384
B	31 345	42 866	47 537	+16 192
D	270 097	228 294	193 973	-76 124

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Reyting tizimining joriy etilishidan beri AAA, AA va A toifasidagi subyektlar soni sezilarli oshdi: 2024-yil boshida jami 1 655 ta bo'lgan bo'lsa, 2025-yil oxiriga kelib 11 928 taga yetdi. D toifasidagi subyektlar soni esa 270 097 tadan 193 973 taga kamaydi. Bu tendensiya tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikka rioya qilish darajasi oshayotganini ko'rsatadi.

Biroq imtiyozlar va subsidiyalar hozircha barqarorlik reytingiga mutanosib holda differensiallashtirilmagan. Imtiyozlardan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi BBB, BB va B toifalarida joylashgan: ular ham bir xil miqdordagi imtiyozlardan foydalanmoqda. Bu holat resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq kodeksiga kiritilgan yangilik asosida raqamli markirovkalash qoidalarini buzganlik uchun belgilangan jarima miqdori to'liq qayta tartibga solindi. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-maydagi O'RQ-927-son Qonuni bilan sof tushum miqdorida (100%) belgilangan jarima o'rniga oxirgi chorak sof tushumining ikki foizi (2%) miqdorida jarima tayinlandi.

Iqtisodiy asoslash: Gary Becker (1968)ning "optimal jazo" modeliga muvofiq, haddan tashqari jarima tadbirkorlarni qonuniy faoliyatdan norasmiy sektorga o'tishga undaydi. Yangi me'yorga ko'ra, amaliy hisoblar shuni ko'rsatadiki, 2%li jarima tadbirkorning faoliyatini izdan chiqarmasdan, qonunchilikka rioya qilishni ta'minlashning samarali vositasi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, tavsiya etilgan mexanizmga ogohlantirish bosqichini ham kiritish — ya'ni ilk qoidabuzarlik uchun jarima emas, ko'rsatma berish — ixtiyoriy rioya darajasini yanada oshiradi.



Tadbirkorlik subyektlariga beriladigan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va preferensiyalarni ularning barqarorlik reytingiga mutanosib ravishda differensiallashtirib qo'llash mexanizmi tavsiya etiladi. Taklif etilayotgan tizim quyidagicha: AAA, AA, A toifalari — to'liq imtiyoz (100%); BBB — 70%; BB — 60%; B — 50%; past toifalar (SSS, SS, S, D) — imtiyozsiz.

Amaliy hisob-kitoblarga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida o'rtacha 60%li differensial imtiyoz me'yori qo'llanilganda budjetga qo'shimcha tushum 2020-yilda 12 426,2 mlrd. so'm, 2021-yilda 17 391,7 mlrd. so'm, 2022-yilda 29 175,7 mlrd. so'm, 2023-yilda 23 851,3 mlrd. so'm, 2024-yilda 8 878,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lar edi. Jami 5 yil davomida 91 723,0 mlrd. so'mlik qo'shimcha tushumga erishish mumkin bo'lar edi.

Bu yondashuv ikki tomonlama ijobiy natija beradi: bir tomondan, soliq qonunchiligiga rioya qiluvchi tadbirkorlarni rag'batlantiradi; ikkinchi tomondan, budjet yo'qotishlarini kamaytiradi va davlat mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlaydi.

Kameral soliq tekshiruvi o'zining mohiyatiga ko'ra masofadan — soliq organi o'z joylashgan joyida hujjatlar va axborotlarni tahlil qilish orqali — amalga oshirilishi lozim. Biroq amaliyotda 2020-yildan boshlab kameral tekshiruv ba'zi hollarda sayyor tekshiruv elementlarini qamrab ola boshladi, ya'ni inspektorlar soliq to'lovchi hududiga kirib, bino va inshootlarni ko'rikdan o'tkazishdi.

Bu holat bir qator muammolarga olib kelgan: inson omilining kuchayishi va subyektiv qarorlar xavfi, korrupsion holatlarga imkon yaratish, tekshiruv turlari o'rtasidagi huquqiy chegaralarning noaniqligi, tadbirkor faoliyatiga ortiqcha ma'muriy aralashuv. Shu boisdan, 2024-yil 13-martdagi Vazirlar Mahkamasining 132-son qaroriga muvofiq kameral soliq tekshiruvini o'tkazishda soliq organi xodimlariga soliq to'lovchi hududiga kirish taqiqlandi.

Tavsiyaning ilmiy asosi: Organisation for Economic Co-operation and Development (2021) tadqiqotlariga ko'ra, ma'lumotlarga asoslangan intellektual nazorat tizimi (data-driven audit) inspeksion tashrif asosidagi nazoratga qaraganda 3–4 barobar samaraliroq. Qaror joriy etilgandan so'ng kameral tekshiruvlarning tezkorligi 2 barobarga oshgan (o'rtacha muddat 15 ish kunidan 7 ish kuniga qisqargan), aniqlangan kamchiliklarning 87%i soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil bartaraf etilgan.

QQS tizimining samarali amal qilishi uning zanjirliligi — barcha bosqichlardagi subyektlarning tizimga to'liq qamrab olinishi bilan bevosita bog'liq. Biroq farmatsevtika va tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida QQS zanjirining uzilishi kuzatildi: ayrim subyektlar aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi bo'lib, QQS tizimida ishtirok etmagan.

Bu holat quyidagi salbiy oqibatlarga olib keldi: soliq hisob-kitoblarning buzilishi va budjet tushumlarining kamayishi, ayrim subyektlarning sun'iy ravishda aylanmani bo'lib ko'rsatib, kichik korxonalar orqali faoliyat yuritishi, soliq bazasining qisqarishi va soya iqtisodiyoti ulushining oshishi. Muammoning ko'lamiga katta: 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublika miqyosida QQS zanjiri uzilishi 152 533 ta korxonada kuzatilgan.

Tavsiya: farmatsevtika mahsulotlari savdosi va tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi barcha yuridik shaxslar yillik aylanmasidan qat'iy nazar QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Buning asosiy sabablari quyidagilar: ko'p bosqichli ta'minot zanjirida (ishlab chiqaruvchi – distribyutor – dorixona) bitta uzilgan havola ham butun tizimga ta'sir ko'rsatadi; ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bu soha davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadi va monitoring qilinishi zarur; elektron EHF tizimi orqali to'liq nazorat o'rnatish imkoni mavjud.

Ilgari surilgan to'rtta ilmiy taklifni bir tizim sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular soliq ma'murchiligining turli zaifliklariga javob beradi. Birinchi va ikkinchi yangiliklar tadbirkorlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda adolat va mutanosiblik tamoyilini mustahkamlashga, uchinchi yangilik esa soliq nazoratini to'liq raqamli platformaga o'tkazishga xizmat qiladi. To'rtinchi yangilik QQS tizimining uzluksiz zanjirini ta'minlash orqali budjet daromadlarini kengaytirishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish yo'nalishida to'rtta ilmiy yangilik ilgari surilib, ularning ilmiy va amaliy asoslanishi ko'rsatildi:

Raqamli markirovkalash qoidalarini buzganlik uchun jarima miqdorini sof tushumdan emas, balki oxirgi chorak sof tushumining 2%idan hisoblash — bu tadbirkorlik faolligini saqlab qolgan holda qonunchilikka rioya etishni ta'minlaydi.

Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va preferensiyalarni barqarorlik reytingiga mutanosib differensiallashtirish — bu 5 yil ichida budjetga 91,7 trillion so'mlik qo'shimcha tushum imkonini beradi va davlat mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlaydi.

Kameral soliq tekshiruvda soliq inspektorlarining soliq to'lovchi hududiga kirishini to'liq taqiqlash va tekshiruvni masofaviy-raqamli formatga o'tkazish — bu nazoratning samaradorligini oshirib, korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Farmatsevtika mahsulotlari savdosi va tibbiy xizmat ko'rsatish sohasidagi barcha yuridik shaxslarni daromadidan qat'iy nazar QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatga olish — bu QQS zanjirining uzluksizligini ta'minlab, budjet tushumlarini barqarorlashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-39-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6773342>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi "Kameral soliq tekshiruvini o'tkazish tartibini soddalashtirish to'g'risida" 132-son qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7409817>
3. Gary Becker Crime and Punishment: An Economic Approach // Journal of Political Economy. — 1968. — Vol. 76 (2). — P. 169–217.
4. James Alm, Benno Torgler Culture Differences and Tax Morale in the United States and in Europe // Journal of Economic Psychology. — 2006. — Vol. 27 (2). — P. 224–246.
5. International Monetary Fund. Tax Administration 2019: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. — Washington D.C.: IMF, 2019.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development. Tax Administration 2021: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. — Paris: OECD Publishing, 2021.
7. Davlat Soliq Qo'mitasi. Yillik hisobot ma'lumotlari, 2020–2025-yillar. — Toshkent: DSQ, 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat budjeti ijrosi to'g'risida hisobot, 2020–2025-yillar. — Toshkent: MV, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
